



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Buxoro davlat universiteti**  
rektori \_\_\_\_\_ **O.X. Xamidov**

**2023-yil «16» noyabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2022/2023 O‘QUV YILI  
NAVBATDAN TASHQARI YIG‘ILISH QARORLARI**

**2023-yil «16» noyabr**

**Soat 08:30**

- Raislik qiluvchi:** – **O.X. Xamidov** – **Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi**
- Qatnashdilar:** – **Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)**

**KUN TARTIBI:**

**Eshitildi: Z.S.Nurov** (TSNQDB boshlig‘i) kengash a‘zolariga Fakultetlarda o‘quv jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq muammoli holatlar, shuningdek turli sabablarga ko‘ra o‘tilmay qolgan dars mashg‘ulotlari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar to‘g‘risida axborot berdi.

2023 yilning oktabr oyida BuxDU TSNQD tomonidan darslarning olib borilishi o‘rganib chiqildi va bu o‘rganishlar davomida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

<b>1. Sport faoliyati va pedagogika fakulteti</b>	<b>9 ta</b>
<b>2. Tarix va yuridik fakulteti</b>	<b>15 ta</b>
<b>3. Xorijiy tillar fakulteti</b>	<b>24 ta</b>
<b>4. Filologiya fakulteti</b>	<b>2 ta</b>
<b>5. Tabiiy fanlar fakulteti</b>	<b>9 ta</b>
<b>6. Fizika - matematika fakulteti</b>	<b>8 ta</b>
<b>7. Iqtisodiyot va turizm fakulteti</b>	<b>17 ta</b>
<b>8. Axborot texnologiyalari fakulteti</b>	<b>2 ta</b>
<b>9. Agranomiya va bio texnologiya fakulteti</b>	<b>2 ta</b>

**O‘RGANILGAN HOLATLAR BO‘YICHA:**

**Xorijiy tillar fakultetida** 5 ta juftlikda darslar o‘tilmagan bo‘lib, bunda o‘qituvchilarning bergan tushuntirish xatlariga asosan prokuraturaga chaqirilganligi sababli SAPAROVA M. R. 16-oktabr kuni 7-juftlikda 11-2INGK-23 guruhidagi darsini hamda Samarqand shahriga xizmat safariga ketishgani sababli 17-oktabrda 7-juftlikdagi 11-

ZINGK-22, 8-juftlikdagi 11-1INGK-22 guruhlaridagi darslarini, shuningdek, RASULOVA N. A. ham 17-oktabrda 8-juftlikdagi 11-2INGK-23 guruhiga qo'yilgan darslarini o'tishmagan. Samarqandga ketayotganliklarini dekan o'rinbosariga aytib, ularning darslarini Hemis dasturidan olinishini so'rashgan bo'lsada, dekan o'rinbosari tomonidan darslar olinmagan. Shuningdek, o'qituvchilar ham darslarni Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan.

13-oktabr kuni TURSUNOV M.M. 7-juftlik darsini 11-1INGK-22 guruhiga o'tishi lozim bo'lsada, ayni shu guruhga Raxmonov A.P. tomonidan shu juftlikda boshqa fan o'tilgan (7-juftlikda) o'tilgan.

**Filologiya fakultetida** 4 ta juftlikdagi darslar o'tilmagan. 3 ta juftlik QODIROV A.A. tomonidan 18-oktabr 8-juftlikda 6-1Rus IM (kechki)-21, 20-oktabr 7-juftlikdada 6-1Rus IM (kechki)-21, 8-juftlikda 6-1Rus IM (kechki)-21 guruhlariga o'tilmagan. Tushuntirish xatida QODIROV A.A. darslarni betobligi sabab o'ta olmaganligini bildirgan. Betobligi to'g'risida kasallik varaqasi taqdim etmagan. O'tilmagan darslarni Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan. Shuningdek, ESHONQULOV X.P. esa 23-oktabr 1-juftlikda 6-4Uzb-21 va 6-3Uzb-21 guruhlariga talabalar xabarsiz qolib kelmaganligi sabab o'tmagan, lekin Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan.

**Tarix va yuridik fakultetida** 2 juftlik dars o'tilmagan. ISMATOVA D.T. 18-oktabr 3-juftlikda 5-4PSIO-21 (Oila psixologiyasi) guruhiga darsini o'tmagan. Tushuntirish xatida o'qituvchi talabalarga darsni Hemis dasturidan olinishini va ularni darsga kelmasliklarini aytgan, lekin darsga 8 nafar talaba kelgan. O'qituvchi darsni Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan. AXMEDOVA Z.J. esa dekan o'rinbosariga kasallik varaqasi ochtirganligini xabar bergan bo'lsada, dekan o'rinbosari Hemis dasturidan darsni olmagan. O'qituvchi ham 9-oktabrda 3-juftlikdagi 5-2PSI(A)-23 guruhidagi darsni Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan.

**Agronomiya fakultetida** 2 ta juftlik dars o'tilmagan. G'OZIYEVA G.A. 5-oktabrda 5-juftlikdagi 13-6BIO-20 guruhiga va SAFAROVA Z.T. 12-oktabrda 4-juftlikdagi 13-5BIO-20 darslarini malaka oshirishda o'qiyotgan davrda darslarga yetib kela olmagan. Har ikkala o'qituvchilar ham darslarni Hemis dasturida o'tilgan dars sifatida belgilagan.

O'tilmagan ushbu dars mashg'ulotlarini o'qituvchilar tomonidan qayta o'tib berishlari kafedra mudirlari orqali ta'minlanish choralari ko'rilmogda.

### 2023-YIL OKTYABR OYIDA O'TILMAGAN DARSLAR

T. R	I.F.O.	Fanni nomi	Gurux va auditoriya	Fakultet	Tushuntirish xati	Sababchi
1	Saparova M. R.	O'qish ko'nikmalari Amaliy	312/Xorijiy tillar 11-1INGK-22 8 17,10,2023y.	Xorijiy tillar	Universitet tomonidan Samarqandga safarda bo'lgan. Zam dekanga aytilgan, xemisdan olinmagan, lekin dars o'tilgan sifatida belgilangan	Zam dekan
2	Saparova M. R.	O'qish ko'nikmalari Amaliy	314/Xorijiy tillar 11-2INGK-22 7 17,10,2023y.	Xorijiy tillar	Universitet tomonidan Samarqandga safarda bo'lgan. Zam dekanga aytilgan, xemisdan olinmagan, lekin dars o'tilgan sifatida belgilangan	Zam dekan
3	Saparova M. R.	O'qish va yozish amaliyoti Amaliy	402/Xorijiy tillar 11-2INGK-23 7 16,10,2023y	Xorijiy tillar	O'qituvchi prokuraturaga chaqirilgan. Zam dekan xabardor kilingan. Dars bo'lmagan, lekin	Zam dekan

					Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	
4	Rasulova N. A.	Amaliy grammatika va fonetika Amaliy	402/Xorijiy tillar 11-2INGK-238 17,10,2023y	Xorijiy tillar	BDU tomonidan tashkil etilgan Samarqand viloyatiga sayoxatga ketgan. Dars o'tilmagan, lekin Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	Zam dekan
5	Eshonqulov X. P.	Navoiyshunoslik Ma'ruza	313/Filologiya 6-4Uzb-21, 6-3Uzb-211 23.10.2023y.	Filologiya	Talabalar xabarsiz qolib kelmagan. Dars qoldirilgan, lekin Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	O'qituvchi
6	Qodirov A. A.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti Ma'ruza	211/Filologiya 6-1Rus IM (kechki)-217 20.10.2023y.	Filologiya	Darsni betobligi sabab o'ta olmagan. Qaytib o'tib bermoqchi. Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	O'qituvchi
7	Qodirov A. A.	Lingvistika dolzarb muammolari Ma'ruza	211/Filologiya 6-1Rus IM (kechki)-218 20.10.2023y.	Filologiya	Darsni betobligi sabab o'ta olmagan. Qaytib o'tib bermoqchi. Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	O'qituvchi
8	Qodirov A. A.	Lingvistika dolzarb muammolari Ma'ruza	211/Filologiya 6-1Rus IM (kechki)-218 18.10.2023y	Filologiya	Darsni betobligi sabab o'ta olmagan. Qaytib o'tib bermoqchi. Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	O'qituvchi
9	Ismatova D. T.	Psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya Ma'ruza	508/3-bino 5-4PSIO-21 (Oila psixologiyasi) 3 18,10,2023y	Tarix va yuridik	O'qituvchi talabalarga darsga kelmasliklarini aytgan, lekin 8 ta talaba kelgan. Darsni o'tilgan sifatida belgilagan. Qaytadan o'tib bermoqchi	O'qituvchi
10	G'ozdiyeva G. A.	auditoriyada Biologiyani o'qitish metodikasi fanidan Seminar	5 oktabr 13-6BIO-20 guruhiga 5 juftlikda Agronomiya fakulteti binosi 209-auditoriya	Agronomiya	O'qituvchi malaka oshirishda bo'lganligi sababli darsga ulgurib kelolmagan, lekin Xemisda darsni o'tilgan sifatida belgilagan.	O'qituvchi
11	Safarova Z. T.	Yosh fiziologiyasi va gigiyena Amaliy	105/Agronomiya . 13-5BIO-204 12.10.2023y. Dars bo'lmayapti	Agronomiya	O'qituvchi malaka oshirishda bo'lgan. Darsga yetib kelolmagan. Xemisda o'tilgan sifatida belgilangan	O'qituvchi
12	Axmedova Z. J.	Rivojlanish psixologiyasi va differensial. Seminar	526/3-bino AXMEDOV A Z. J. 5-2PSI(A)-233 09,10,2023y.	Tarix va yuridik	O'qituvchi kasal bo'lgan. Kasallik varaqasi bo'lgan. Zam dekanga Xemisdan olishni aytgan bo'lsada olinmagan va Xemisda dars o'tilgan sifatida belgilangan	Zam dekan
13	Tursunov M. M.	Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati..	411/Xorijiy tillar 11-1INGK-227 13.10.2023y.	Xorijiy tillar	shu kuni shu parada shu guruxga Raxmatov A.P. 408-xonada dars o'tganligi xaqida tushuntirish xati	O'qituvchi

**E'tiboringiz uchun rahmat, savollar bo'lsa, marhamat!****Kengash raisi: Ushbu masala bo'yicha kimda qanday takliflar bor, marhamat!**

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi. Tahlillar asosida tilga olingan kafedra ma'sullariga so'z berildi. Ushbu masala bo'yicha so'zga chiqqanlar ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rishlarini ta'kidlashdi.

Kengash raisi O.Hamidov TSNQDB boshlig'i Z.Nurov tomonidan "Fakultetlarda o'quv jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq muammoli holatlar, shuningdek turli sabablarga ko'ra o'tilmay qolgan dars mashg'ulotlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar" to'g'risidagi axboroti bo'yicha xulosa qilib, mazkur masala qayta jiddiy ko'rib chiqilishini, barcha ma'sullarning ushbu jarayonda faol ishtirok etishi va ko'rsatilgan kamchiliklar e'tiborga olingan holda navbatdagi kengashda qayta muhokama qo'yilishini topshiriq berdi.

Kengash a'zolaridan ushbu taklifni ochiq ovoz berish yo'li bilan tasdiqlab berishlarini so'radi.

**Kengash a'zolari ushbu taklifni qo'llab-quvvatlashdi.**

**Hamma rozi, qarshi va betaraflar bo'lmadi.**

**Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:**

1. Fakultetlarda o'quv jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq muammoli holatlar, shuningdek turli sabablarga ko'ra o'tilmay qolgan dars mashg'ulotlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar axborot uchun qabul qilinsin.

2. Dars mashg'ulotlari barbod bo'lishiga sababchi professor-o'qituvchilar hamda dekan muvoinlariga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari ko'rilsin hamda kafedra va fakultet yig'ilishlarida muhokama qilinsin (muddat: 20.11.2023, mas'ul: kafedra mudirlar, fakultet dekanlari).

3. O'tilmay qoldirilgan dars mashg'ulotlarini qayta tashkil etib, kamera bilan jihozlangan xonada o'tib berilishi ta'minlansin hamda kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinganligini tasdiqlovchi majlis bayonnomasidan ko'chirma (dars jarayonidan rasmlar bilan) TSNQD ga taqdim etilsin (muddat: 25.11.2023, mas'ul: professor-o'qituvchilar, kafedra mudirlar, fakultet dekanlari).

4. Pedagog-xodimlarning dars qoldirish holatlari yuzasidan kafedra mudirlari va fakultet dekanlari tomonidan universitet rahbariyatiga, talabalarning darslarni qoldirish holatlari yuzasidan professor-o'qituvchilar tomonidan dekanatga o'z vaqtida ma'lumot kiritishi ta'minlansin (muddat: muntazam, mas'ul: professor-o'qituvchilar, kafedra mudirlar, fakultet dekanlari).

---

**II Turli masalalar**

**O zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining  
haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlarni  
tavsiya etish to'g'risida**

**T.H.Rasulov**

**Eshitildi: T.H.Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga O zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga**

(akademiklikka) e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlarni tavsiya etish to'g'risida axborot berdi.

**2.1.1. "Geleofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari" kafedrası professori, p.f.d. Siddiq Qahhorovich Qahhorovni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilish to'g'risida**

**ESHITILDI: T.H.Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor):** – Kengash a'zolariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirlarini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-298-sonli qarorining 4-bandi, 4-xatboshisida belgilangan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlov o'tkazish topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida va Fanlar akademiyasi Ustavining 45- va 49-bandlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) quyidagi fan tarmoqlari bo'yicha tanlov e'lon qilinganligi va ushbu tanlovda universitetda uzoq yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan professor pedagogika fanlari doktori Siddiq Qahhorovich Qahhorovning nomzodligi tavsiya etilayotganligi aytib o'tdi.

Kengash a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) e'lon qilingan tanlovda ishtirok etayotgan professor, pedagogika fanlari doktori Siddiq Qahhorovich Qahhorovning tanlov mezonlari bo'yicha ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan tanishtirdi. (tavsiyanoma va xulosa ilova qilinadi).

Xulosa qilib aytganda, "Geleofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari" kafedrası professori, p.f.d. Siddiq Qahhorovich Qahhorovning mazkur tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlari belgilangan mezon talablari asosida ko'rib chiqilganligini ta'kidlab, Kengash a'zolaridan Siddiq Qahhorovich Qahhorov nomzodini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovida ishtirok etish uchun qo'llab – quvvatlashlarini so'radi.

Ushbu masala bo'yicha o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G.Jumayev, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayev, Fizika-matematika fakulteti dekani H.O.Jo'rayevlar so'zga chiqib, tanlovga tavsiya etilayotgan nomzod "Geleofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari" kafedrası professori, p.f.d. Siddiq Qahhorovich Qahhorov haqida o'zlarining iliq fikrlarini bildirib,uning nomzodini qo'llab-quvvatladilar.

Kengash raisi O.X. Xamidov ham professor Siddiq Qahhorovich Qahhorovning ko'p yillik ilmiy pedagogik faoliyati, olim tomonidan 2 ta texnologiya (davriy va geliotexnologiya)ga asos solinganligi, 4 ta ixtiro yaratilib, patent va mualliflik guvohnomalari olinganligini, uning yaratgan ilmiy maktabni e'tirof etdi va kengash a'zolaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilayotgan nomzod "Geleofizika, қайта тикланувчи энергия манбалари" кафедраси professori, p.f.d. S.Q.Qahhorovning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 76 nafar Kengash a'zosida 71 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

**Nomzod Siddiq Qahhorovich Qahhorovga 71 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.**

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H.Rasulovning "Geleofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari" kafedrası professori, p.f.d. Siddiq Qahhorovich Qahhorovni

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Geleofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari" kafedrasini professori, p.f.d. Siddiq Qahhorovich Qahhorovning hujjatlari belgilangan talablar asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilinsin.

**2.1.2. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, f.f.d. O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilish to'g'risida**

**ESHITILDI: T.H.Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor):** – Kengash a'zolariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirlarini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-298-sonli qarorining 4-bandi, 4-xatboshisida belgilangan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlov o'tkazish topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida va Fanlar akademiyasi Ustavining 45- va 49-bandlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) quyidagi fan tarmoqlari bo'yicha tanlov e'lon qilinganligi va ushbu tanlovda universitetda uzoq yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan professor filologiya fanlari doktori O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaning nomzodligi tavsiya etilayotganligi aytib o'tdi.

Kengash a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) e'lon qilingan tanlovda ishtirok etayotgan professor, filologiya fanlari doktori O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaning tanlov mezonlari bo'yicha ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan tanishtirdi. (*tavsiyanoma va xulosa ilova qilinadi*).

Xulosa qilib aytganda, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, f.f.d. D.S.O'rayevaning mazkur tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlari belgilangan mezon talablari asosida ko'rib chiqilganligini ta'kidlab, Kengash a'zolaridan O'rayeva Darmon Saidaxmedovna nomzodini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovida ishtirok etish uchun qo'llab – quvvatlashlarini so'radi.

Ushbu masala bo'yicha o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G.Jumayev, Filologiya fakulteti dekani Q.R.To'xsanov, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini mudiri D.Z.Rajabov, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri H.P.Eshonqulovlar so'zga chiqib, tanlovga tavsiya etilayotgan nomzod, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, f.f.d. D.S.O'rayeva haqida o'zlarining iliq fikrlarini bildirib, uning nomzodini qo'llab-quvvatladilar.

Kengash raisi O.X. Xamidov ham professor O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaning ko'p yillik ilmiy pedagogik faoliyati, uning yaratgan ilmiy maktabni e'tirof etdi va kengash a'zolaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilayotgan nomzod O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, f.f.d. D.S.O'rayevaning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi.

**Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.**

**Kengashda 76 nafar Kengash a'zosida 71 nafari ishtirok etdi.**

**Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:**

**Nomzod O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaga 71 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.**

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H.Rasulovning O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovnani O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. O'rayeva Darmon Saidaxmedovnaning hujjatlari belgilangan talablar asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilinsin.

## **2.2. 2023/2024 o'quv yili me'yoriy hujjatlar (Malaka talab, o'quv reja va fan dasturlari) va talabalar yig'ma jildini taqdim etish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G.Jumayev (o'quv ishlari bo'yicha prorektor): – Kengash a'zolariga “ 2023/2024 o'quv yili me'yoriy hujjatlar (Malaka talab, o'quv reja va fan dasturlari) va talabalar yig'ma jildini taqdim etish to'g'risida” axborot berdi.**

2023/2024 o'quv yilida 10 ta fakultet 39 ta kafedrada, faoliyat yuritib, 22626 nafar talaba tahsil olib kelmoqda.

2023/2024 o'quv yilida Buxoro davlat universitetdagi 39 ta kafedraga tegishli professor-o'qituvchilarning umumiy yuklamasidagi soatlar taqsimotining oxirgi holatini (2023-yil 1-noyabrgacha) tasdiqlab berishingizni so'rayman. Kafedralarga tegishli professor-o'qituvchilarning umumiy yuklamasidagi soatlar taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan.

№	Kafedra nomi	Umumiy soat	Taqsimlangan soat	Hissa	Vakant
1	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari	25659	24448	27	1211
2	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar	25585	25545	28,5	40
3	Matematik analiz	18585	17396	19	1189
4	Differensial tenglamalar	19230	18425	25,75	805
5	Fizika	15928	15653	17,5	275
6	Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika	14784	14387	16,5	397
7	Umumiy va noorganik kimyo	9462	9261	10,5	201
8	Organik va fizkolloid kimyo	12673	11857	13	816
9	Ekologiya va geografiya	17574	16763	18,5	811
10	Iqtisodiyot	34661	34358	36,5	303
11	Yashil iqtisodiyot va agrobiznes	10432	10425	11,5	7
12	Buxgalteriya hisobi va statistika	19894	19088	21	806
13	Turizm va mehmonxona xo'jaligi	24746	22974	25	1772
14	Marketing va menejment	20489	20475	23,25	14
15	Jahon tarixi	16102	15869	17,25	233
16	Arxeologiya va Buxoro tarixi	24675	24625	27,75	50
17	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa	18280	16589	19,5	1691
18	Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar	36529	35602	40	927
19	Psixologiya va sotsiologiya	28226	27946	31	280
20	Sport faoliyati	15364	14566	16	798
21	Sport nazariyasi va metodikasi	18695	18635	21	60
22	Boshlang'ich ta'lim	27396	24375	27	3021

23	Maktabgacha ta'lim	16321	14500	15	1821
24	Pedagogika	15242	15148	17,5	94
25	Zoologiya va umumiy biologiya	18120	16626	19,5	1494
26	Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi	14363	13436	14,75	927
27	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	14517	13934	15,25	583
28	Agronomiya va tuproqshunoslik	27063	26979	29,25	84
29	O'zbek tili va adabiyoti	22177	21871	25,5	306
30	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika	35807	35791	39	16
31	Rus tilshunosligi	22119	20744	23,25	1375
32	Rus adabiyotshunosligi	12899	12899	14	0
33	Tasviriy va amaliy san'at	14812	14774	16,75	38
34	Musiqqa ijrochiligi va madaniyat	21290	20168	22,25	1122
35	Ingliz tilshunosligi	38989	38989	45	0
36	Nemis filologiyasi	18240	17771	20,5	469
37	Fakultetlararo chet tillar	27594	27594	31,25	0
38	Ingliz adabiyotshunosligi va jurnalistika	48045	47925	53	120
39	Fransuz filologiyasi	22840	21091	23,75	1749
	Jami:	845407	819502	918,5	25905

HEMIS platformasi asosida ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 5907 nafar talaba hisobot davrida 160 soatdan 2 soatgacha dars qoldirgan (o'tgan o'quv yilidan ham mavjud).

HEMIS tizimida talabalarning darslarga qatnashishi tahlil qilinganda, hisobot davrida ko'p qoldiradigan talabalar mavjud. Bu bo'yicha fakultet mas'ullari o'quv yili boshidan talabalar bilan manzilli ishlashi, talabalar davomatini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, kechki ta'limda tahsil olayotganlarning davomati talab darajasida emas. Shu bilan bir qatorda professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlarga qatnashmagan talabalarni to'liq qayd etish holati yaxshi emas, ya'ni darsda ishtirok etmagan talabalar to'liq tizimda qayd etilmayapti.

1-kursga to'lov-konrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlarni ma'lumotlarini tizimga joylashtirishda xatoliklar mavjud. Jumladan, Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 14 ta grant asosida tahsil olishi belgilangan bo'lsada, tizimga 48 nafar grant etib birlashtirilgan. Natijada talabalarning shartnoma olishlari sun'iy cheklangan. Barcha fakultet mas'ullari tizimdagi xatoliklarni bartaraf etishi lozim (1-kun muddatda).

#### Kursdan kursga o'tmagan talabalar haqida umumiy ma'lumot

Universitetda "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 6-bandiga muvofiq universitetda talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) bo'yicha hujjatlarni qabul qilish bo'yicha Ishchi guruh tuzildi. Shuningdek, Nizomga muvofiq o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) masalalari bo'yicha murojaat etayotgan talabalarning arizalarini o'rganish va tegishli qaror qabul qilish maqsadida universitetda 26 nafar tarkibdan iborat komissiya shakllantirildi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish va qayta tiklash Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshirildi.

2023/2024 o'quv yilining boshlanishi munosabati bilan ko'plab fuqarolar, ota-onalar hamda talabalar universitet rahbariyati va fakultet rahbariyati ga murojaatlari ko'paygan. Biroq, murojaatlarni ro'yxatga olish va tizimli ishlash yakuniga yetkazilmagan. O'tgan o'quv yilidagi dekanatdagi ish yuritish hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish lozim, ayniqsa reyting qaydnomalarida

kafedra mudirlari, ayrimlarida dekan imzosi va imtihon o'tkazilgan sanalar qayd etilmagan. Ayniqsa, bu qayta topshirish qaydnomalarida ko'proq uchraydi.

### **Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. 2023/2024 o'quv yili me'yoriy hujjatlar (Malaka talab, o'quv reja va fan dasturlari) va talabalar yig'ma jildini taqdim etish to'g'risida o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024 o'quv yili me'yoriy hujjatlar (Malaka talab, o'quv reja va fan dasturlari) va talabalar yig'ma jildini taqdim etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2023/2024 o'quv yili me'yoriy hujjatlar (Malaka talab, o'quv reja va fan dasturlari) va talabalar yig'ma jildini taqdim etish yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig'ilishlarida muhokama qilinsin va ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas'ullar: fakultet dekanlari; muddat: 10 kun davomida).

4. Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratilishi ta'minlansin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

5. Universitetda joriy qilingan HEMIS va UNIWORK platformalarda kafedra yuklamalari qisqa muddatda shakllantirilsin. Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan davomat kunlik borilishi ta'minlansin. (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

6. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash kotibi**



**N.G.Dilova**